

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANIDA LUG'AT YODLASHNING FOYDALI TOMONLARI

Maxmudov Z.M.¹, Absamatova D.²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'qitishda lug'at yodlashning ahamiyati, foydali tomonlari, ba'zi asosiy jihatlarini talabalarga taqdim etish va dars jarayonida samarali foydalanish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: lug'at yodlash, fikrlash, so'z boyligini oshirish, kommunikatsion qobiliyatni rivojlantirish, faol, motivatsiya, muloqot, ko'nikma, eslash, bilsh, amalda qo'llash, yozish, gapirish, soddalashtirish.

Lug'at yodlash, hat qanday tilni, jumladan lotin tili va tibbiy terminologiyaning atamalarini o'rganishda muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon tilning asosiy tarkibiy qismlarini o'zlashtirishga yordam beradi va atama boyligini oshirish orqali kommunikativ qobiliyatni rivojlantiradi. Lug'at yodlashning foydalari juda keng, quyida ba'zi asosiy jihatlarini ko'rib chiqamiz:

1. So'z boyligini oshirish

Lug'at yodlash talaba lug'at fondini boyitadi. Har bir yangi atama, talabaning tibbiy terminlarni bilish boyligini kengaytiradi va bu, o'z navbatida, uning fikrlarini yanada aniq va to'liq ifodalash imkoniyatini yaratadi. Atamalarini bilish, tibbiy tashxis va jumalarni tuzishda erkinlikni oshiradi va fikrni aniq yetkazishga yordam beradi.

2. Kommunikatsion qobiliyatni rivojlantirish

Yangi atamalar o'rganilganda, ularni to'g'ri kontekstda qo'llash, muloqotda, anatomik, farmatsevtik va klinik fanlarga tegishli ma'ruza va seminarlarda erkin ishtirok etish imkonini beradi. Talaba, lug'atdagi atamalar yordamida o'z fikrlarini tushunarli va aniq tarzda ifodalashni o'rganadi. Bu, ayniqsa, til o'rganayotganlarda, ya'ni maktablarda mutlaqo o'rgatilmaydigan, faqat tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'tiladigan lotin tili kabi yangi tilni o'rganish jarayonida juda muhimdir.

3. Yozish va gapirishni takomillashtirish

Lug'atni boyitish nafaqat og'zaki nutq, balki yozma nutqda ham foyda keltiradi. Atamalarining to'g'ri va samarali ishlatilishi, matn yoki nutqni aniq va o'qilishi oson qilishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, yozma ishlarning sifatini oshiradi va talabaning tilda erkin harakat qilishiga yordam beradi. Natijada bo'lg'usi shifokor tashxis va retseptlarni yozishda xatoga yo'l qo'ymaydi.

4. Yangi tilni o'rganishda osonlik yaratish

Yangi tilni o'rganayotganda, lug'atni yodlash alohida ahamiyatga ega. Har bir atamani yodlash, tilni tez o'rganish va uning grammatik tizimini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Lotin tili tibbiy atamalarini o'rganayotganda asrlar davomida shakllangan ot, sifat, fe'l va hakoza so'z turkumlarining lug'at shaklida yodlash talabaga so'z birikmalar tuzish va tarjima qilishda ham qulayliklar yaratadi. Misol uchun lotin tilining ot so'z turkumida atamalar bosh kelishik birlik soni (Nominativus Singulari)da to'liq yozilib, qaratqich kelishigi birlik soni (Genetivus Singularis)ning qo'shimchasi hamda rodi ko'rsatiladi. Masalan: ala, ae, f -qanot; oculus, i, m -ko'z; magister, tri, m -o'qituvchi; ligamentum, i, n -bog'lam; corpus, oris, n -tana; abdomen, inis, f -qorin; pulmo, onis, m -o'pka; arcus, us, m -yoy; genu, us, n -tizz; caries, ei, f -chirish. Shuningdek, lug'atni kengaytirish tilni amaliy qo'llashda qulaylik yaratadi. Misol uchun lotin tili grammatikasida moslashmagan aniqlovchi deb nomlangan so'z birikmalarini yasash texnologiyasida ikkita ot so'z turkumidagi atamadan yangi so'z birikma hosil qilish yuqoridagi lug'at shaklini yod olgan talaba uchun osonlashadi. Masalan: qovurg'aning yuzasi degan so'z

¹ Maxmudov Zafar Mardanovich, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrası assistenti

² Absamatova Dilnura, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Pediatriya fakulteti talabasi

birikma hosil qilish kerak bo'lsa, talaba *costa*, *ae*, *f* –qovurg'a; *facies*, *ei*, *f* –yuza deb yod olgan bo'lsa, deylik, lotin tili grammatik qoidalarini bilsa, yuza –*facies* qovurg'aning –*costae* bo'lishini hamda o'zbek tili va lotin tili so'z tartibi teskari mos kelishini bilsa, bemalol *fasies costae* so'z birikmasini tuza oladi.

5. Eslash ko'nikmalarini rivojlantirish

Lug'at yodlash, talabaning eslash qobiliyatini kuchaytiradi. Yodlangan atamalar miyaga mahkam joylashadi va ular keyinchalik uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Bu esa eslab qolish jarayonini soddalashtiradi va tilni mustahkam o'rganishga yordam beradi. Faqat, talabadan qunt bilan o'qish, ota-onalar va dekanat xodimlaridan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarga har qanday holatlarda ham aralashmaslik so'raladi. Biz bunga e'tibor bersak, albatta samarali natijaga erishamiz.

6. O'qish, tinglash va tarjima qobiliyatini oshirish

Yangi atamalarni yodlash, talabaning o'qish va tinglashdagi qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Har bir yangi atama talabani matnlarni chuqurroq tushunishga undaydi, shuningdek, tilni original manbalardan o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu, ayniqsa, tarjima qilishda, atamalarining to'g'ri va aniq ishlatilishini ta'minlashda juda foydalidir. Birinchi kurs talabalari lotin tili fanida olgan anatomik terminlarga xos bilimlarini shu kursdayoq anatomiya fanlarida mustahkamlashi, farmatsevtik terminlarga xos bilimlarini ikkinchi va uchinchi kursda farmakologiya fanlarida mustahkamlashi, klinik terminlarga xos bilimlarini uchinchi va yuqori kurslarda xirurgiya, terapiya, pediatriya kabi klinik fanlarida mustahkamlashi natijasida shifokor tili shakllanadi.

7. Madaniy anglashni oshirish

Til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq. Lug'at yodlash, talabalarga nafaqat atamalarni, balki o'sha tilga xos madaniy kontekstlarni tushunishga ham yordam beradi. Har bir atamaning o'ziga xos ma'nosi va tarixi bor, bu esa madaniyatni anglashni yanada chuqurlashtiradi. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanida lug'at o'rganish qadimgi Rim, va Gretsiya davlatlari hamda ularning madaniyatlaridan boshlab, O'rta Asrlar Yevropasi va Sharq Uyg'onish Davri taraqqiyot davrlarini ham tasavvur qilishga va anglashga sababchi bo'ladi.

8. Mustaqil o'rganishni rivojlantirish

Lug'atni yodlash jarayoni, talabani mustaqil o'rganishga undaydi. Atamalarni yodlash, o'zini o'zi tekshirish va yangi atamalarni qo'llash orqali talaba o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon o'qish va o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Talabaning mustaqil o'rganishini tashkil etish va uni rivojlantirish kredit modul tizimiga o'tish davrida juda muhim masala bo'lishi kerak. Talabalar ongiga lug'at yodlash zarurligini singdira olishimiz kerak.

9. O'qitish va ta'limda samaradorlikni oshirish

Lug'atni yodlash, talabalarni ko'proq professionallashuvga jalb qiladi va ularni samarali tarzda o'rganishga yordam beradi. O'qituvchi yangi atamalarni qiziqarli usullar bilan taqdim etishi, talabalarni ularni tez va samarali o'rganishga undaydi, talaba ichki va tashqi ta'sirlarni salbiy emas, faqat ijobiy qabul qilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchilarimizdan talabaning bilimini qunt bilan nazorat qilishi, me'yor darajada qattiqqo'llik va me'yor darajada mehribonlik ko'rsatishi talab etiladi. O'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalansa, dars va mustaqil ta'lim davomida talaba uzluksiz va uzviy shug'ullanishini tashkil eta olsa, samarali natijalarga erisha olamiz.

Xulosa o'rnida lug'at yodlash til o'rganishning ajralmas qismidir. Bu jarayon nafaqat tilni yaxshi bilish, balki muloqotda erkin bo'lish, yozish va o'qishda samarali natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Lug'atni kengaytirish, talabalarni yanada bilimdon va malakali qiluvchi eng muhim omillardan biridir. Bu borada butun insoniyatning xoloskori sifatida qaraladigan shifokorlar uchun lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rganish ikki-uch karra muhimdir. Shunday ekan, talabalarining mas'uliyatli ish oldida o'z bilimlarini boyitishlarida lug'at yodlashning muhimligini tushunib yetishlariga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Karimovna, Y. S., Erkinovna, T. N., & Agwan, A. (2023). *Modern Education And Cultural Development Nurturing Global Citizens In The 21st Century*. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(11), 292-294.
- [2]. Nasimova, S., & Bustonova, G. (2024, May). *Texnologik Innovatsiyalar Va Strategik Boshqarishda Ishlatiladigan Amaliyotlar*. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 427-430).
- [3]. Саматова, Г. Н., & Насимова, С. (2016). *Прагматический подход к преподаванию на английском языке*. Научный альманах, (6-1), 605-607.
- [4]. Ёрова, С. (2023). *Тиббий нутқнинг ижтимоий-маданий асослари. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(1), 35-38.
- [5]. Shodikulova, A. Z. (2022). *The analysis of the phenomenon of metonymy*. Science and Education, 3(12), 1136-1140.
- [6]. Шодикүлова, А. З. (2021). *Дискурсивный анализ производных метонимий*. Форум молодых ученых, (4 (56)), 439-444.
- [7]. Genjebayeva, A. P. (2020). *The role of interactive methods in teaching foreign languages in higher education institutions*.
- [8]. Sevinch, M., & Perkhan, A. (2023). *The Role Of The Latin Language In Medicine*. Journal of Innovation, Creativity and Art, 166-169.
- [9]. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. (2023). *Lotin Tilida Klinik Terminlarning To'g'ri Qo'llanish Yuzasidan Fikrlar*. Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), 23-27.
- [10]. Mardanovich, M. Z. (2022). *The place of problematic and heuristic methods in the process of teaching latin and medical terminology*.
- [11]. Эсанова, М. Б. (2022). *Инглиз ва ўзбек тилларидаги қўшма гапларнинг тўсиқсиз маъноли турлари*. Science and Education, 3(11), 1372-1375.
- [12]. Buriyev, D., & Esanova, M. UDC: 91373.2: 831.692. 143 (099) *New Ways Of Using Innovative Technologies In Foreign Language Teaching*. In *International scientific-online conference International scientific-online conference*.
- [13]. Mallaevna, N. S. (2023). *The main indicators of the communication culture of a medical worker*. Journal of innovations in scientific and educational research, 6(7), 85-88.
- [14]. Mallaevna, N. S., & Chopra, A. (2024). *Some features of prescription rules in medicine. technical science research in Uzbekistan*, 2(1), 238-244.
- [15]. Beknazarova, M. K. (2022). *Lotin tilini o'qitish jarayonida klinik kafedralar bilan integratsiyalashtirilgan mashg'ulotlarning maqsadli yo'naltirilishidagi natijalar*. Science and Education, 3(11), 653-656.
- [16]. Jonibekovna, N. D. (2022). *Integration of the course of the latin language course with the course of normal anatomy*. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 38-40.
- [17]. Baxtiyarovna, B. D., Xolmurodovna, M. S., Nabiyevena, H. K., Maxammadovna, K. N., & Abdumannopovna, R. X. (2019). *Modern methods in learning English*. International scientific review, (1 (41)), 32-35.
- [18]. Alisherovna, A. U. (2025). *Zamonaviy Tilshunoslikda Nutq Tushunchasini Talabalarga O'rgatish*. Лучшие интеллектуальные исследования, 38(1), 394-398.
- [19]. Xamidovna, H. M. (2024). *Fransuz tilida murakkab nisbiy olmoshlarning ishlatish metodikasi*. Miasto Przyszłości, 53, 451-452.
- [20]. Fayzullaev, F. U. (2021). *The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language*. JournalNX, 7(1), 68-70.
- [21]. Болтакулова, Г. Ф. (2016). *Синтаксическая дистрибуция компонентов, выражающих темпоральность в английском и узбекском языках*. Вестник Челябинского государственного университета, (9 (391)), 44-50.
- [22]. Xamrayeva Z. X., Ulug'bek qizi Saidazamova M. *Improving students reading comprehension by using literary texts //World of Scientific news in science*. – 2024. – T. 2. – №. 1. – С. 257-263.
- [23]. *The Impact of Communicative Approach on Developing Students` Speaking Skills*. RS Sharifovna American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2 (10), 173-176.
- [24]. Khaydarov E., Yakubova M. *The interplay of language and thought*. – 2024.
- [25]. Yusupova N. *The Project Method As A Way Of Organizing Independent Work //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. – 2024. – С. 363-366.